**XALQ DEPUTATLARI QORAKO’L TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 29-avgust VII-14-109-2-37-K/25 Qorako’l tumani

**Qoraköl tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosidan kelib chiqib, daromadlari va xarajatlari rejasiga oʻzgartirishlarni kiritish toʻgʻrisida**

Qoraköl tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlari rejasiga tegishli oʻzgartirishlar hamda yuqori budjetdan maqsadli tadbirlar uchun qoʻshimcha ajratilgan mablagʻlar toʻliq hisobga olinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 143 va 147-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini taʼminlash, budjetda koʻzda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va oʻz vaqtida amalga oshirish maqsadida tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak xarajatlariga hamda daromadlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yuqorida bayon etilganlarga, “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Qoraköl tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak yakunlariga koʻra budjet parametrlariga kiritilgan oʻzgatirishlar toʻgʻrisidagi tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimining maʼlumoti qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-148-moddalariga asosan tuman mahalliy budjetining ijrosini taʼminlash, budjetda koʻzda tutilgan xarajatlarni belgilangan tartibda va oʻz vaqtida amalga oshirish maqsadida Qoraköl tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak yakunlari boʻyicha xarajatlari *(xarajatlarga kiritilgan oʻzgartirishlar 2025-yilning 29-aprel kuni holatiga olingan)* hamda daromad rejasining prognoz koʻrsatkichlari doirasida kiritilgan tegishli oʻzgartirishlar 1, 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan 2025-yil tasdiqlangan budjet parametrlariga favqulotda hamda kechiktirib boʻlmaydigan xarajatlarni amalga oshirish zarurati tugʻilganda, budjet tashkilotlarining soʻroviga asosan, budjet tashkilotlarini saqlash bilan bogʻliq va boshqa zaruriy va kechiktirib boʻlmaydigan xarajatlarni amalga oshirish uchun budjet parametrlariga oʻzgartirish kiritish tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi tomonidan amalga oshirilishi inobatga olinsin hamda amalga oshirilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisida tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi chorak yakuni bilan tuman xalq deputatlari Kengashiga hisobot kiritib borsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiya raisi R.Xoʻjamurodov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror huquqiy ekspertizadan oʻtkazish uchun tuman adliya boʻlimiga kiritilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



TOHIROV XURSHID YAHYOYEVICH

Xalq deputatlari Qorako’l tumani Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-109-2-37-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**1-Ilova**

**Qorakoʻl tumani mahalliy byudjetining 2025-yil tasdiqlangan byudjet parametrlariga 2025-yilda hududiy mablagʻ taqsimlovchilar kesimida kiritilgan oʻzgartirishlar***

*2025-yil 30-aprel holatiga* mln.soʻm

| № | Hududiy byudjet mablagʻlarini taqsimlovchining nomi | 2025-yil tasdiqlangan reja | 2025-yil aniqlangan reja | Farq yoki kiritilgan oʻzgarish | Kiritilgan oʻzgarishlar | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Jami kiritilgan oʻzgarish | OʻzR IMV hamda viloyat IMBB tomonidan kiritilgan oʻzgarish hisobidan | Erkin qoldiq hisobidan | Ichki byudjetidan kiritilgan oʻzgarish hisobidan | Asoslar | | Kiritiladigan oʻzgarish |
| | | | | | | | | | Zaxira jamgʻarmasi (hokim farmoyishi) | XDK qarori (05.04.2025-yildagi VII-8-52-2-37-K/25) | |
| x | Qorakoʻl tuman byudjeti | 144 358,5 | 152 193,0 | 7 834,5 | 7 834,5 | 5 539,5 | 2 295,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 1 | Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi | 35 940,0 | 41 994,8 | 6 054,8 | 6 054,8 | 6 209,1 | 0,0 | -154,3 | 0,0 | -154,3 | 0,0 |
| 2 | Madaniyat boʻlimi | 4 618,7 | 4 933,5 | 314,8 | 314,8 | 0,0 | 0,0 | 314,8 | 100,6 | 214,3 | 0,0 |
| 3 | Yoshlar ishlari agentligi Qorakoʻl tuman boʻlimi | 6 004,0 | 5 904,2 | -99,8 | -99,8 | 0,0 | 0,0 | -99,8 | 0,0 | -99,8 | 0,0 |
| 4 | Sport maktabi | 17 014,9 | 16 782,3 | -232,5 | -232,5 | -232,5 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 5 | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi | 2 345,0 | 2 100,0 | -245,0 | -245,0 | -245,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 6 | Qishloq xoʻjaligi tashkilotlari | 4 354,9 | 4 354,9 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 7 | Suv yetkazib berish xizmati DM | 2 028,6 | 2 039,5 | 10,9 | 10,9 | 0,0 | 10,9 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 8 | Iqtisodiyot va moliya boʻlimi | 2 688,0 | 2 513,7 | -174,3 | -174,3 | 10,7 | 0,0 | -185,0 | 0,0 | -185,0 | 0,0 |
| 9 | Tuman hokimligi | 46 923,3 | 48 891,4 | 1 968,1 | 1 968,1 | -232,2 | 2 054,1 | 146,3 | -128,6 | 154,8 | 120,0 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **10** | **Tuman hokimligi (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)** | **1 004,6** | **1 004,1** | **-0,5** | **-0,5** | **-0,5** | **0,0** | **0,0** | **0,0** | **0,0** | **0,0** |
| **11** | **Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi** | **21 436,6** | **21 544,6** | **108,0** | **108,0** | **30,0** | **100,0** | **-22,0** | **28,0** | **70,0** | **-120,0** |
| **12** | **Sogʻliqni saqlash tashkilotlari** | **0,0** | **130,0** | **130,0** | **130,0** | **0,0** | **130,0** | **0,0** | **0,0** | **0,0** | **0,0** |

* Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining bidirishnomalariga asosan kiritilgan oʻzgartirishlar.

Xalq deputatlari Qorako’l tumani
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-14-109-2-37-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Qorakoʻl tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 1-chorak daromadlari rejasining ijrosidan kelib chiqib tuman mahalliy byudjeti hamda soliq turlari kesimida prognoz rejaning toʻliq ijrosini taʼminlash maqsadida kiritilgan oʻzgartirishlar**

*ming.soʻmda*

| T/r | Manbalar nomi | 1-chorak | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Tas. Reja | Aniq. Reja | Kir-gan oʻzg. | Ijro |
| 1 | Aylanmadan olinadigan soliq | 2 414 000 | 2 434 000 | 20 000 | 2 453 054 |
| 2 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi | 14 618 880 | 17 017 290 | 2 398 410 | 15 180 597 |
| 3 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi | 371 000 | 371 000 | 0 | 444 589 |
| 4 | Aksiz soligʻi jami | 733 320 | 733 320 | 0 | 715 469 |
| 5 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 1 013 000 | 1 013 000 | 0 | 2 074 773 |
| 6 | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 1 590 000 | 1 347 000 | -243 000 | 2 082 156 |
| 7 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi | 6 096 000 | 3 814 400 | -2 281 600 | 3 176 161 |
| 8 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi | 4 830 000 | 4 130 000 | -700 000 | 4 141 497 |
| 9 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 1 341 000 | 841 000 | -500 000 | 199 479 |
| - | qishloq xoʻjalagi tashkilotlari (40%) | -425 000 | -252 000 | 173 000 | 0 |
| 10 | Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari | 21 000 | 21 000 | 0 | 44 479 |
| 11 | Boshqa tushumlar | 0 | 0 | 0 | 2 004 456 |
| - | Jarimalar | 0 | 0 | 0 | 42 311 |
| - | Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq | 0 | 0 | 0 | -1 920 |
| - | Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar | 0 | 0 | 0 | 850 000 |
| - | Boshqalar | 0 | 0 | 0 | 1 114 066 |
| **Jami** | | **32 603 200** | **31 470 010** | **-1 133 190** | **32 516 709** |

*Izoh: Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalari hamda tegishli mahalliy byudjetlar va soliq turlari kesimida ijrosidan kelib chiqib, oʻzgartirishlar kiritiladi.*